

Mazkur hujjat TEZ xizmatidan foydalanish shartlarini belgilaydi va 18 yoshga to'lgan va tegishli huquq va qobiliyatga ega bo'lgan jismoniy shaxslarga quyidagi shartlar asosida shartnoma tuzish uchun yozma ommaviy oferta hisoblanadi:

### 1. Umumiy qoidalar

1.1. Tez xizmati jismoniy shaxslarga geografik joylar o'rtasida boshqa jismoniy shaxslar foydasiga pul o'tkazmalarini amalga oshirish imkonini beradi, ularning ro'yxati xizmat operatori tomonidan belgilanadi, shuningdek ro'yxati vaqti-vaqti bilan iOS va Android operatsion tizimlari asosida mobil ilovalardan foydalanish orqali xizmat operatori tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan boshqa xizmatlardan foydalanish imkonini beradi.

1.2. TEZ xizmatidan foydalanishga ruxsat olish uchun jismoniy shaxs-mijozlarining abonent qurilmalariga tegishli mobil ilovalarni o'rnatish orqali amalga oshiriladi.

1.3. TEZ xizmatidan foydalangan holda mijoz WOOPPAY elektron pullar tizimida ro'yxatdan o'tishga, shuningdek elektron pullardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish orqali unga xizmatlar ko'rsatishga so'zsiz rozilik beradi.

1.4. Xizmat ko'rsatuvchi operator mijozga elektron pul va to'lov kartalari bilan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha xizmatlarni taqdim etadi.

### 2. Mazkur shartnomada qo'llaniladigan atamalar va tushunchalar

Ushbu Shartnomada va unga keyinchalik qilinadigan qo'shimchalar va ilovalarda, shuningdek ushbu Shartnomaga tegishli har qanday yozishmalarda barcha atamalar va ta'riflar Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi; ushbu bo'lim; elektron pullardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq qismida - [www.wooppay.com](http://www.wooppay.com) manzili orqali taqdim etiladigan WOOPPAY elektron pul tizimining Ichki qoidalariga (keyingi o'rinlarda - WOOPPAY Qoidalari) muvofiq talqin etiladi. Agar atama ushbu bo'limda yoki ushbu bo'limda ko'rsatilgan hujjatlarda nazarda tutilmagan bo'lsa, atama Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq unga eng yaqin ma'noda ko'rib chiqiladi.

**Xizmat ko'rsatuvchi Operator** – Mas'uliyati cheklangan shirkat «WOOPPAY» (ВУППЭЙ), (№ 09-17-001 raqamli to'lov tashkiloti, (keyingi o'rinlarda WOOPPAY deb yuritiladi) va Qozog'iston Halq Jam'arma Banki aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda Bank deb yuritiladi) hisoblanib, birgalikda TEZ xizmati faoliyatini ta'minlovchi hamda ushbu Shartnoma maqsadlarida xizmat ko'rsatuvchi sifatida ishtirok etishadi. Mijoz bilan munosabatlar doirasida ushbu sub'ektlarning har biri xizmat operatori nomidan ish yuritish huquqiga ega.

**TEZ xizmati** – Xizmat ko'rsatuvchi operator tomonidan o'rnatilgan cheklovlar va imkoniyatlar doirasida TEZ xizmatidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan, turli davlatlarda bo'lgan jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalarini amalga oshirish bo'yicha Mijozga xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan, iOS va Android operatsion tizimlariga va Xizmat ko'rsatuvchi Operatorning boshqa resurslari asosiga qurilgan TEZ mobil ilovalar, Xizmat ko'rsatuvchi Operatorning apparat va dasturiy ta'minot majmuasi.

**Ilova** - iOS yoki Android operatsion tizimida ishlovchi mobil ilova bo'lib, TEZ xizmatidan foydalanishga ruxsat olish uchun interfeys hisoblanadi.

**Mijoz** - TEZ xizmati orqali taqdim etiladigan xizmatlardan foydalanishni istagan jismoniy shaxs.

**Ayirboshlash kursi** - Bank tomonidan operatsiya vaqtida belgilangan tijorat kursi. Valyutani naqdsiz sotib olish/sotish kursi kundalik ravishda Bank tomonidan belgilanadi va Tez xizmatiga uzatiladi. Valyutani naqd pulsiz sotib olish/sotish kursi kun davomida bank tomonidan bozordagi vaziyatga qarab o'zgartirilishi mumkin.

**Yuboruvchi** – pul mablag'i jo'natmasini amalga oshiruvchi Mijoz.

**Oluvchi** – pul mablag'ini qabul qiluvchi Mijoz.

**Xizmatlar** – TEZ xizmatidan foydalanish mumkin bo'lgan turli mamlakatlarda joylashgan jismoniy shaxslar o'rtasida pul o'tkazmalarini o'tkazish, shuningdek, ro'yxati vaqti-vaqti bilan Xizmat ko'rsatish operatori tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin bo'lgan boshqa xizmatlar kabi mijozlarga pul o'tkazish imkoniyatini taqdim etish bo'yicha xizmatlar.

### 3. Shartnoma predmeti

3.1. Mazkur shartnomaning predmeti Xizmat ko'rsatuvchi operator tomonidan mijozlarga xizmatlar ko'rsatish. Xizmatlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan pul mablag'larini o'tkazishni istagan jismoniy shaxslarga qaratilgan.

3.2. Shartnoma doirasida Mijoz xizmatlarni olish uchun mablag'ning Yuboruvchisi yoki Oluvchisi bo'lishidan qat'i nazar, WOOPPAY tizimida (ushbu atama WOOPPAY Qoidalarida belgilangan) ro'yxatdan o'tishga, shuningdek WOOPPAY tizimida elektron pul yordamida operatsiyalarni amalga oshirishga rozilik beradi. TEZ xizmatidan foydalanish WOOPPAY Qoidalarini tasdiqlash va ushbu qoidalarga hech qanday shartlarsiz rozi bo'lish hisoblanadi.

3.3. Xizmat ko'rsatuvchi operator xizmatlarni taqdim etish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan holatlar bo'yicha Mijozlarning bir birlari oldida kelib chiqadigan majburiyatlar uchun javobgar emas.

3.4. Xizmat ko'rsatuvchi Operator shartnomada ko'rsatilmagan boshqa xizmatlarni ko'rsatishi mumkin, agar da operatsiyani amalga oshirish jarayonida bunday xizmatlarning shartlarni Mijoz tomonidan qabul (aksept) qilingan bo'lsa.

3.5. Xizmat ko'rsatuvchi Operator alohida toifadagi operatsiyalarni amalga oshirishda o'z majburiyatlarini bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilishga haqlidir.

3.6. Mijoz TEZ xizmatidan vakolatli hududining qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida foydalanmasligini, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan bunday foydalanishga yo'l qo'yib bermasligini tasdiqlaydi.

#### **4. TEZ xizmatidan foydalanish. Shartnoma tomonlarining huquqlari va majburiyatlari, TEZ xizmatidan foydalanishdagi cheklovlar.**

4.1. Mijoz taqdim etiladigan ko'rsatmalarga muvofiq amaldagi mobil telefon raqamidan foydalangan holda Ilovada ro'yxatdan o'tadi. Ilovada ro'yxatdan o'tmasdan biron bir harakatni amalga oshirish imkoniyati mavjud emas. Ro'yxatdan o'tish tugagandan so'ng WOOPPAY tizimida hamyon yaratiladi, Ilovada avtorizatsiya avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Agar TEZ xizmatida ro'yxatdan o'tish paytida Mijoz allaqachon WOOPPAY tizimining Mijoz bo'lsa, Mijozning shaxsiyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan maqomi ham Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga o'tkaziladi, bu haqda mijoz xabardor etilgan va o'z roziligini bildirgan.

4.2. Yuboruvchi operatsion topshiriqnomani shakllantiradi, uning tasdig'i sifatida Yuboruvchi taqdim etgan pul mablag'i ekvivalentida Yuboruvchiga elektron pullarni Agent tomonidan sotilishi yoki Emitent tomonidan bevosita elektron pullarni chiqarilishi hamda ushbu pul mablag'larini boshqa Mijoz nomiga o'tkazilishiga rozilik beradi.

4.3. Barcha komissiyalar, qo'shimcha to'lovlar, boshqa mumkin bo'lgan xarajatlar, ayriboshlash kursi haqidagi ma'lumotlar Yuboruvchiga operatsion topshiriqnoma tasdiqlanganiga qadar yetkazib beriladi.

4.4. Agar Oluvchi rezident bo'lgan davlat Yuboruvchilikda boshqa bo'lsa, Yuboruvchi Oluvchiga o'tkazma summasi haqida taqdim etilgan ma'lumotni Oluvchi bo'lib turgan mamlakatining valyutasida oladi, shu bilan birga ayriboshlash kursi Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi hamda o'zining ichki reglamentiga ko'ra Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan belgilanadi.

4.5. Oluvchiga pul o'tkazmasini Oluvchi tomonidan qabul qilinganligi to'g'risidagi xabarnoma rad etish yoki tasdiqlash huquqi bilan yuboriladi. O'tkazma tengeda elektron pullar orqali amalga oshiriladi. Oluvchi elektron pullar evaziga pul mablag'ini kirim qilib berishni so'rashga haqli bo'lib, bunda ushbu imkoniyatni Xizmat ko'rsatuvchi Operator Oluvchiga Agentdan elektron pullarni sotib olish yoki elektron pullarni Emitent tomonidan qoplash orqali ta'minlashga majburdir.

4.6. Oluvchiga elektron pullar evaziga berilishi lozim bo'lgan pul mablag'lari, elektron pullar qoplab berilganidan so'ng Oluvchining topshirig'iga ko'ra u rezident bo'lib turgan davlatning valyutasiga konvertatsiya qilinib, Oluvchining bank kartasiga o'tkazib berilishi mumkin.

4.7. Ilova orqali har qanday operatsiya faqatgina Qozog'iston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda identifikatsiya qilinganidan so'ng amalga oshirilishi mumkin.

4.8. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Qozog'iston Respublikasi va rezidentlari uchun TEZ xizmatidan foydalanishga ruxsat etilgan boshqa mamlakatlar va hududlar qonunchiligiga muvofiq TEZ xizmatidan foydalanish uchun cheklovlar va limitlarni belgilash huquqiga ega. Xususan, agar Oluvchining mamlakati qonunchiligida operatsiyalar summasi uchun Qozog'iston Respublikasidan farqli bo'lgan cheklovlar o'rnatilgan bo'lsa, belgilangan cheklovlar va limitlarning shartlari qat'iyrog'i qo'llaniladi.

4.9. Agar Xizmat ko'rsatuvchi Operator o'rnatgan muddatda elektron pullar o'tkazmasi Oluvchi tomonidan tasdiqlanmasa, pul mablag'lari Yuboruvchiga qaytarish vaqtida ayriboshlash kursi bo'yicha qaytarib beriladi (agar kirim qilinadigan mablag' valyutasi yechilgan mablag' valyutasidan farq etsa). Shu bilan birga, Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan ushlab qolinishi mumkin bo'lgan komissiyalar qaytarib berilmaydi.

4.10. Xizmat ko'rsatuvchi Operator TEZ xizmati orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar uchun komissiyalarni belgilash huquqiga ega.

4.11. TEZ xizmatiga Mijozlarga taqdim etiladigan mamlakatlar va hududlar ro'yxati Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan belgilanadi va vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

4.12. Amalga oshirilgan operatsiyaning barcha tasdiqlovchi hujjatlari va cheklari Mijozga elektron hujjat shaklida taqdim etiladi, va agar mavjud bo'lsa, ushlab qolingani komissiya miqdori ushbu hujjatlarda ko'rsatiladi. Agar valyutalar farq qilsa, Oluvchining kartasiga kirim bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilayotganda, bunday hujjatlar shuningdek teng va kirim qilinayotgan valyutadagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

4.13. TEZ xizmatidan foydalanish jarayonida Mijozga TEZ xizmatining dasturiy ta'minotiga o'zgartirish kiritish, TEZ xizmatining to'xtab qolishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yoki Xizmat ko'rsatuvchi Operatorning manfaatlariga ziyon yetkazadigan, shu jumladan mustaqil ravishda yoki uchinchi tomon ishtirokida o'zgartirishlar kiritish, zaif tomonlarini qidirish va ulardan foydalanish, so'rovlarni almashtirish va boshqa har qanday harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi.

4.14. Xizmat ko'rsatuvchi Operator dasturiy ta'minotning modifikatsiyasini ishlab chiqish va eskirgan dasturiy ta'minot yordamida TEZ xizmatidan foydalanishni taqiqlash huquqiga ega.

4.15. TEZ xizmatining ishlashini ta'minlash bilan bog'liq dasturiy ta'minot va/yoki apparat vositalari faoliyatida

nosozliklar, xatolar va uzulishlar aniqlanganda, shuningdek profilaktika maqsadida va ruxsatsiz kirishni oldini olish maqsadida Xizmat ko'rsatish Operatori dasturiy ta'minot va apparat vositalarining ishlashini to'xtatib turishga haqli.

4.16. Mijoz TEZ xizmati va Ilovasining ishlashi, shuningdek, Shartnomaga ko'ra xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha WOOPPAY manziliga kerakli ma'lumotlarni olish uchun murojaat qilish huquqiga ega.

4.17. WOOPPAY tizimining ishlashi va elektron pullar orqali operatsiyalarni amalga oshirish natijasida kelib chiqadigan huquqlar, majburiyatlardan va javobgarliklarning ta'fsilotlari WOOPPAY Qoidalarida keltirilgan.

### **5. Maxfiylik va xavfsizlik**

5.1. Xizmat ko'rsatuvchi Operatori TEZ xizmatining xavfsizligini ta'minlash, uzatiladigan ma'lumotlar va xabarlarining himoya qilish uchun javobgardir.

5.2. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Mijoz tomonidan unga taqdim etilgan ma'lumotlarni, shuningdek TEZ xizmatidan foydalanish jarayonida unga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni sir tutilishiga rioya etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, Shartnomada nazarda tutilgan hollatlar, Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi, TEZ xizmatidan foydalanishga ruxsat etilgan mamlakatlar va hududlar qonunchiligi, shuningdek, bunday ma'lumotlar odatda Mijozning talabiga yoki ruxsatiga ko'ra ochiq qilanganda yoki oshkor qilingan holatlar bundan mustasno.

5.3. TEZ xizmatiga boshqalar tomonidan kirishga yoki ruxsat etilmagan holatda foydalanishga ko'maklashuvchi autentifikatsiya ma'lumotlarini, TEZ xizmati tomonidan o'ziga taqdim etilgan boshqa ma'lumotlarni Mijoz himoya qilish bo'yicha mustaqil ravishda choralar ko'rishni o'z zimmasiga oladi.

5.4. Mijoz uchinchi shaxslarga o'z ma'lumotlarini berganda, qasddan o'z akkauntidan foydalanishga ruxsat etganda, bank kartasi ma'lumotlarini taqdim etganda yoki ma'lumotlarning maxfiyligini har qanday ravishda buzgan taqdirda, Xizmat ko'rsatuvchi Operator Mijoz oldida javobgar emasligini tan oladi.

5.5. Mijoz darhol uning roziligisiz amalga oshirilgan har qanday operatsiyalar to'g'risida Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga xabar berishga majburdir. Bir kalendar kun ichida operatsiya amalga oshirilgan paytdan boshlab hamda elektron pullar orqali o'tkazilgan operatsiyalar to'g'risida Mijozga tegishli xabarnoma yuborilgan taqdirda Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga tegishli tartibda xabar berilmasa, Operatsiya mijoz tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanadi. Mijoz foydasiga noto'g'ri operatsiya amalga oshirilgan taqdirda, Mijoz zudlik bilan Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga bunday operatsiya to'g'risida xabar berish majburiyatini oladi, ammo xabar berish vaktidan qat'i nazar, Mijoz asossiz ravishda olgan, shu jumladan Mijoz hamyoniga xatolik sababli va/yoki takroran elektron pullar kirim qilinganda, xatolik sababli va/yoki Elektron pullarni qoplash/realizatsiya qilish hisob varag'iga mablag'lar kirim qilinishi fakti yuzaga kelganda, jumladan elektron pullar Mijozdan yechilmaganda lekin pul ekvivalenti Mijozga o'tkazib berilganda va/yoki naqd pul shaklida berilganda hamda Mijoz tomonidan ruxsat etilmagan operatsiyalar amalga oshirilganda va uchinchi tomonni zarar ko'rishni aniq bo'lgan holatlarda har qanday pul mablag'lari va/yoki elektron pullarni qaytarib berishga majburdir. Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan bunday xatolik sababli va/yoki takroran kirim operatsiyalari haqidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlar xizmat ko'rsatuvchi banklardan va hamkorlardan qabul qilib olinganda, shuningdek Mijoz bank hisob varag'iga Mijoz tomonidan elektron pullarni qoplab berish va/yoki realizatsiya qilish takroran va/yoki xatolik sababli mablag' kirim qilib berilganda, Xizmat ko'rsatuvchi Operator xatolik sababli va/yoki takroran kirim qilingan mablag'larga teng elektron pullarni, shuningdek qayd etilgan holatlar aniqlanganda Mijoz hamyonida qaytarib olish uchun elektron pullar yetarli bo'lmasa, Mijoz hamyonini keyinchalik to'ldirganda Mijozga oldindan xabar bermasdan turib, Mijoz Foydalanuvchilarni Qo'llab-quvvatlash Xizmatiga murojaat etib bunday ma'lumotni olish imkoni yaratilib, shuningdek Xizmat ko'rsatuvchi Operator ma'lumot mavjud bo'lgan taqdirda Mijozga xizmat ko'rsatuvchi bankka talabnoma yuborish orqali mablag'larni akseptsiz yechib olish huquqini o'zida qoldiradi.

5.6. Agar Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga uchinchi shaxslarning Mijoz akkauntidan foydalanishni qo'lga kiritganligi sababli Mijozni blokga qo'yish bo'yicha topshiriq kelib tushganda, blokga qo'yish bo'yicha ariza bergan shaxs o'zi akkauntning egasikanligini isbotlay olmasa, Xizmat ko'rsatuvchi Operator mazkur operatsiya bo'yicha barcha operatsiyalarni kutib turish rejimiga o'tkazadi. Operatsiyani yakunlash yoki bekor qilish akkauntning haqiqiy egasi shaxsi tasdiqlangandan va undan operatsiyalarni tugatish yoki bekor qilish to'g'risida topshiriq olingandan so'ng amalga oshiriladi.

### **6. Javobgarlik**

6.1. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Mijoz oldida amaldagi operatsiyalar tugagandan so'ng Mijozning elektron pullar qoldiq summasidan ko'p bo'lmagan miqdorda javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.2. Xizmat ko'rsatish Operatori o'zining aybi bilan bog'liq bo'lmagan holatda yuzaga kelgan TEZ xizmatining vaqtincha ishlamay qilishi, apparat yoki dasturiy qurilmalardagi nosozlik va xatoliklarga javobgar emas hamda bunday holatlardagi Mijozning ehtimoliy zararlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.3. Xizmat ko'rsatuvchi Operator TEZ xizmatining ishlashini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot yoki apparatdan foydalanishga ruxsat mavjud emasligi uchun javobgar emas va bunday holatlar bilan bog'liq Mijozning zarari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.4. Xizmat ko'rsatuvchi Operator TEZ xizmati faoliyatiga aralashishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari sodir etilganda, Mijozning autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lmagan taqdirda, bunday harakatlardan sodir etilganda Mijoz tomonidan tashabbus etilgan o'tkazma summasi

doirasidagi Mijozning zararlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Mijozning autentifikatsiya ma'lumotlaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan taqdirda uchinchi shaxslar tomonidan sodir etilgan noqonuniy operatsiyalar amalga oshirilganda, Xizmat ko'rsatuvchi Operator va Mijoz mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

6.5. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Mijozning noto'g'ri ma'lumotlarni, shu jumladan Oluvchining identifikatorini xato taqdim etishi natijasida yuzaga kelgan Xizmat ko'rsatuvchi operatorga noto'g'ri ma'lumotlar, shu jumladan Oluvchining noto'g'ri (noto'g'ri) identifikatorini taqdim etish natijasida yuzaga kelgan zararlari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Ko'rsatilgan holatda Xizmat ko'rsatuvchi Operator Yuboruvchiga noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'larini qaytarish masalasini hal qilishda yordam berishga haqli, ammo agar bunday pulni qaytarib berish imkoni bo'lmasa (shu jumladan Oluvchi tomonidan pul o'tkazmasini ishlatilgan bo'lsa) Xizmat ko'rsatuvchi Operator javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.6. Shartnoma Tomonlari o'zaro majburiyatlarni bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilina dilar, agar ularning bajarilmasligiga sabab Shartnoma kuchga kirganidan keyin yengib bo'lmas kuchlar yoki oldindan ko'ra bilish va bartaraf qilish imkoni bo'lmagan favqulodda holatlarning yuzaga kelishi bo'lsa. Yengib bo'lmas kuch ta'sir qiluvchi tomon bunday holatlar yuzaga kelishidan keyin 10 kundan lechiktirmay ikkinchi tomonni xabardor qilishga majbur.

6.7. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan hollarda, Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun Qozog'iston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

6.8. WOOPPAY mijozning oldida Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni buzganligi uchun javob beradi, agar bunday buzilish elektron pullardan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishga tegishli bo'lsa; Bank mijozning oldida Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni buzganligi uchun javob beradi, agar bunday buzilish bank xizmatlarini ko'rsatishga taalluqli bo'lsa.

## **7. Tariflar:**

7.1. Xizmat ko'rsatuvchi Operatorning xizmatlari qoplanadi.

7.2. Xizmatlar uchun to'lov taqdim etilgan xizmatlar uchun Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan Mijozdan komissiyani ushlab qolish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.3. Har bir operatsiya uchun komissiya miqdori Mijozga u operatsiyani bajarishga topshiriqni tasdiqlangunga qadar etkazib beriladi.

## **8. Nizolarni ko'rib chiqish va hal qilish tartibi**

8.1. TEZ xizmatidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar mazkur Shartnomadan kelib chiqib muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

8.2. Mijoz tomonidan WOOPPAY manziliga yozma da'vo yuborilishi muzokaralarni boshlash uchun asos hisoblanadi.

8.3. Da'vo o'ttiz kun ichida ko'rib chiqiladi, WOOPPAY shundan so'ng Mijoz arizlarini qondiradi yoki Mijozga yozma ravishda asoslangan rad javobini yuboradi.

8.4. Agarda nizolarni 60 kun ichida shikoyat tartibida hal qilish imkoni bo'lmasa, Tomonlardan har biri Xizmat ko'rsatuvchi Operator joylashgan joydagi sudga murojaat qilish huquqiga ega. Mazkur Shartnomaning maqsadi bajarish uchun Xizmat ko'rsatuvchi Operator joylashgan joyi deb Xizmat ko'rsatuvchi Operator tushunchasiga kiritilgan har qanday sub'ektning joylashgan joyi tan olinadi.

## **9. Shartnomani tuzish, bekor qilish va unga o'zgartirishlar kiritish tartibi**

9.1. Ushbu Shartnoma Qo'shilish Shartnomasi shartlari asosida tuzilgan.

9.2. Shartnomani tuzish va uning kuchga kirish vaqti Mijozning ushbu Shartnoma shartlarini Ilovada ro'yxatdan o'tishni yakunlash orqali akseptlash hisoblanadi.

9.3. Ilovada ro'yxatdan o'tish Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma shartlarini, WOOPPAY Qoidalarini, xizmatlar ko'rsatilayotgan mamlakat (mamlakatlar) milliy tizimi (milliy tizimlari) va xalqaro to'lov tizimlari (Visa, Mastercard) qoidalarini (talablarini) hech qanday istisnosiz va cheklovlarisiz to'liq va shartlarsiz qabul qilish bo'lib, Shartnomani yozma shaklda tuzishga teng kuchli hisoblanadi.

9.4. Mazkur Shartnoma noma'lum muddatgacha yoki bekor qilingungacha amal qiladi.

9.5. Mijoz Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga Shartnomani bekor qilish to'g'risida xabar yuborish orqali Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

9.6. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Shartnoma bekor qilingunga qadar kamida uch kun avval Mijozga yozma xabar yuborish orqali Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli, agar Mijoz mazkur Shartnoma shartlarini yoki Qozog'iston Respublikasi qonunchiligi qo'pol ravishda buzsa.

9.7. Xizmat ko'rsatuvchi Operator Ilovaga joylashtirish orqali Shartnoma shartlariga bir tomonlama o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Agar ularni joylashtirishda uzoqroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, o'zgartirishlar e'lon qilingan kundan sanadan noshlab 10 (o'n) kun ichida kuchga kiradi. Shartnomaning amaldagi versiyasi bilan tanishish majburiyati Mijozga yuklatiladi.

9.8. O'zgarishlar kuchga kirgandan keyin TEZ xizmatidan foydalanish Shartnoma tomonlari talqinida ushbu o'zgarishlarning so'zsiz qabul qilinishi sifatida tushuniladi.

## 10. Yakuniy qoidalar

Ilovadan ro'yxatdan o'tib Mijoz:

- Shartnomaning barcha bandlari va Shartnomaning barcha bandlari bilan tanishganligini tasdiqlaydi, belgilanga barcha shartlarni to'lig'icha anglaydi hamda istisnolarsiz va chekinmasdan ularni to'liq qabul qiladi;
- ma'lumotlarni Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga uzatishga rozilik beradi va Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga hech qanday cheklovlarsiz shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish huquqini beradi. Shartnomaning boshqa qoidalaridan tashqari, Mijoz Xizmat ko'rsatuvchi Operatorga shu jumladan, qabul qiluvchi tomondan Xizmat ko'rsatuvchi Operator bilan tuzilgan shartnomaviy munosabatlar doirasida maxfiylik shartlarini tan olgan holda keyinchalik ma'lumotlarni tarqatishni cheklagan shartlarda, Xizmat Operatori tomonidan axborot texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida jalb qilgan tashkilotlarga, o'z shaxsiy ma'lumotlarini Mijoz so'ragan xizmatlarni ko'rsatish uchun zarur bo'lgan hajmda taqdim etadi;
- o'zi so'ragan xizmatlarni ko'rsatish uchun Xizmat ko'rsatuvchi Operator tomonidan jalb etilgan boshqa shaxslarga bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor qilishga rozilik beradi.;
- TEZ xizmatidan ro'yxatdan o'tayotganda login sifatida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga xabarlarini uzatishga, ro'yxatdan o'tish va/yoki operatsiyalarni amalga oshirishda foydalanilgan elektron pochta manziliga xabarlarini yuborishga rozilik beradi;
- yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor emasligini tasdiqlaydi hamda TEZ xizmatining mijozlari biznes uchun foydalanuvchi bo'lmagan faqatgina jismoniy shaxslar bo'la olishiga ko'ngan hisoblanadi;
- Xizmat ko'rsatuvchi Operator Mijozning roziligi bilan operatsiyaning ma'lumotlaridan foydalanish natijasida uchinchi shaxslar bilan tuzilgan harakatlar va/yoki bitimlar hamda Xizmat ko'rsatuvchi Operatordan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Mijoz va/yoki operatsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni noqonuniy ushlab qolinishi va/yoki foydalanishi uchun javobgar emasligini tasdiqlaydi.

## 11. Rekvizitlar

« Qozog'iston Halyk Jamg'arma Banki » aksiyadorlik jamiyati	«WOOPPAY» (БҮИИПЭЙ) Mas'uliyati cheklangan shirkati
<p><b>Yuridik manzil:</b> Qozog'iston Respublikasi, A26M3K5, Алмата sh., Al-Farabiy prospekti, 40 uy <b>BIN</b> 940140000385 <b>ИК</b> KZ87125KZT1001300313 Qozog'iston Respublikasi Milliy bankining monetar operatsiyalar hisobi Boshqarmasida</p> <p><b>BIK</b> HSBKKZKX Rezidentlik belgisi - 1 Iqtisodiyot sektori - 4 QQS hisobga qo'yanlik guvohnomasi Seriya 60001 № 0071463 25.10.2012 y. <b>Tel.</b> +7 (727) 259 07 77 <b>Faks:</b> +7 (727) 259 02 71</p>	<p><b>Yuridik manzili:</b> Qozog'iston Respublikasi, Qarag'anda viloyati, Qarag'anda sh., Kazibek bi tumani, Nursultan Nazarbayev prospekti, 15 uy, Indeks 100000 <b>Faoliyat manzili:</b> Qozog'iston Respublikasi, Qarag'anda viloyati, Qarag'anda sh., Kazibek bi tumani, Nursultan Nazarbayev prospekti, 15/1 uy <b>BIN</b> 120340004314 <b>ИК:</b> KZ396017191000002383 <b>KB:</b> 17 <b>Bank:</b> AJ « Qozog'iston Halyk Jamg'arma Banki » <b>BIK:</b> HSBKKZKX <b>Tel.</b> +7 7212 981 090 +7 7172 795 004</p>